

# Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi

## Isoning Mo'jizalari



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustratsiya qilingan: Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan: E. Frischbutter; Sarah S.

60 ta hikoyadan 40-si

[www.M1914.org](http://www.M1914.org)

*Bible for Children, PO Box 3, Winnipeg, MB R3C 2G1 Canada*

Lisensiya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.

O'zbekcha


Uzbek

Iso ko'p mo'jizalar ko'rsatgan. Bu mo'jizalar Iso Xudoning O'g'li ekanini ko'rsatuvchi belgi edi. Uning birinchi mo'jizasi to'y bazmida sodir bo'ldi. Muammo shunda ediki, to'yda hammaga yetarli sharob yo'q edi.




1

Isoning onasi Maryam Unga bu muammo haqida aytdi, so'ngra xizmatkorlarga Iso buyurgan hamma narsani qilishni uqtirdi.



2

"Bu xumlarni suv bilan to'ldiring," dedi Iso. "Suv?" deb ajablanishgan balki ular. Ha, Iso suv so'rgan edi.



3

Keyin Iso bir xizmatkorga xumdagi suvdan olib ba'zm boshqaruvchiga olib borib, uni tatib ko'rishini aytdi. Suv sharobga aylangan edi. Yaxshi, eng yaxshi sharobga aylangandi!



4

Xizmatkorlar hayratda qolishdi. Iso suvni sharobga aylantirgan edi. Faqat Xudo bunday mo'zījani qilishga qodir.




5

Iso boshqa mo'jizalarni ham ko'rsatgan edi. Bir kuni kechda Iso va Uning shogirdlari Butrusning uyiga borishdi. Butrusning qaynonasi isitmalab yotgan edi.



6

Iso u ayolning qo'liga tekkanida, shu zahotiy oq u shifo topdi. Ayol o'rnidan turib Iso va shogirdlarga xizmat qildi.




7

O'sha kuni kechda eshik oldida butun shahar toplanganga o'xshardi. Barch xasta insonlar - ko'zi ojizlar, karlar, soqovlar va nogironlar kelishgan edi.



8

Iso, Xudoning O'g'li ularga yordam bera olardi. Iso ularga yordam berdi. Uning oldiga kelgan barcha shifo topdi. Butun umr hassaga suyanib yurganlar endi yura, yugura va sakray olishardi.



9

Boshqalar, maxov kasaliga chalingarlar ham kelishdi.



10

Iso ularni shifolaganda ular sog' va pok bo'lishdi.



11

Yovuz ruhlar tufayli qiynalganlar ham Isoning oldiga kelishdi. Iso yovuz ruhlarga tark etishni buyurdi. Yovuz ruhlar Isoning so'ziga bo'ysunib ketganda, g'amgin odamlar tinch va xursand bo'lishdi.



12

Olomon ortida to'rt kishi do'stini Isoning oldiga keltirishga urunishdi. Ammo ular Isoga yaqin kelisholmadi. Endi ular nima qilishadi?



13

To'rt sodiq do'st uying tomini ochib kasal odamni pastga tushirishdi. Endi u Isoning yaqiniga keldi.



14

Iso uning to'rt do'sti imonga ega ekanini ko'rdi. U kasal odamga shunday dedi, "Sening gunohlaring kechirildi. To'shagingni olib yur." U odam o'rnidan sog'lom va baquvat bo'lib turdi. Iso unga shifo bergan edi.




15

Shundan so'ng, Iso shogirdlari bilan qayiqda edi. Dengizda qo'rqinchli bo'ron ko'tarildi. Iso uxlab yotgan edi. Qo'rqib ketgan shogirdlar Uni uyg'otishdi. "Rabbim, bizni qutqar," deb qichqirishdi ular. "Biz halok bo'lyapmiz!"




16

"Sokin bo'l," to'lqinlarga buyurdi Iso. Shu zahotiyuq dengiz tinchlandi. "Bu qanday odam ekan?" deb shivirlashdi shogirdlar. Hatto shamol va dengiz Unga bo'ysunadi.



Ular Iso Xudoning O'g'li ekaniga imon keltirishdi, chunki qilgan mo'zjalari Isoning ulug'vorligini ko'rsatdi. Isoning shogirdlari bilishmas ediki, insonlar orasida Xudoga xizmat qilar ekan,



17

Iso bundan ham buyukroq mo'zjalarni ularga ko'rsatar edi.



18

## Isoning Mo'zjalari

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Matto 8-9 boblar, Mark 1-1 boblar,  
Mark 4 bob, Luqo 4 bob, Luqo 8 bob,  
Yuhanno 2 bob

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."  
Zabur 119:130

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim.

Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Endi Hudo bizni gunohlarimizni Iso tufayli kechira oladi.

Agar siz gunohlaringizdan ozod bo'lishni istasangiz, Hudoga shunday deb ayting: "Mehribon Hudo, Men Iso mening gunohlarim uchun o'lganiga ishonaman, iltimos mening hayotimga kel, va mening gunohlarimni kechir, men yangi hayot bilan yashashim uchun va Sen bilan abadiy bo'lishim uchun menga yordam bergin. Men Sening frazanding bo'lishimga yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!